



DAVLAT KORXONASINI XO'JALIK JAMIYATIGA O'ZGARTIRISHNING FOYDALI JIHATLARI

Z.D. Sanjarov

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yetakchi mutaxassisi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat korxonasini xo'jalik jamiyatiga o'zgartirish jarayonining tartib-taomillari, ularning iqtisodiy samaradorligi, shuningdek, mavjud huquqiy bazada uchrayotgan tizimli kamchiliklar chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan foydaliligi asoslanadi va mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga takomillashtirish kiritish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqiladi. Amaliy tavsiyalar orqali davlat mulkini xususiyashtirishda ochiq savdolar samaradorligini oshirish, xususi sektorning iqtisodiy faolligini rag'batlantirishga qaratilgan tashkiliy mexanizmlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: davlat korxonasi, xo'jalik jamiyati, davlat unitar korxonasi, davlat muassasasi, xususiyashtirish, ochiq savdo.

Abstract: This article explores the procedural framework for transforming state-owned enterprises into business entities, highlighting the economic advantages and identifying existing regulatory shortcomings. The study substantiates the socio-economic benefits of such transformations and presents scientific proposals for amending current legal regulations. Practical recommendations are also provided to enhance the efficiency of privatization processes through open auctions and to stimulate private sector engagement in the national economy.

Key words: state enterprise, business entity, state unitary enterprise, state institution, privatization, public auction.

Аннотация: В статье анализируется процедура преобразования государственного предприятия в хозяйственное общество, раскрываются её экономические преимущества и существующие нормативно-правовые пробелы. Исследование обосновывает социально-экономическую целесообразность преобразований и разрабатывает научные предложения по совершенствованию действующего законодательства. Также представлены практические рекомендации, направленные на повышение эффективности приватизационных процессов, в том числе через развитие публичных торгов и стимулирование частного сектора.

Ключевые слова: государственное предприятие, хозяйственное общество, государственное унитарное предприятие, государственное учреждение, приватизация, публичные торги.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlat korxonalarini xo'jalik jamiyatlariga aylantirish jarayoni muhim institutsional islohotlardan biri sanaladi. Ushbu o'zgarish – davlat mulkiga egalik qiluvchi tashkilotlarning iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini liberallashtirish, ularni bozor sharoitlariga moslashtirish orqali samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, korxonalarni mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritishga, raqobat sharoitida faol bo'lishga va xususi sektor talablariga mos ishlab chiqarish tizimini shakllantirishga undaydi.

Davlat korxonasini xo'jalik jamiyati shakliga o'tkazish – bu faqat tashkiliy-huquqiy shaklning o'zgarishi emas, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqaruv tizimini optimallashtirish, xususi kapitalni jalb etish va resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan chuqur transformatsion jarayondir. Bunday yondashuv korxonaning rivojlanishiga xizmat qilishi bilan birga, davlat byudjetiga qo'shimcha tushumlar keltiradi, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bois, davlat korxonalarini xo'jalik jamiyatlariga aylantirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va institutsional jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, mavjud normativ-huquqiy bazaning to'liqligi, islohotlarning tizimliliigi va amaliy mexanizmlarning aniq belgilanganligiga bog'liqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

J. Qurbonov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ishtiroki holati, aksiyadorlik jamiyatlarining xo'jalik boshqaruv organlari sifatida boshqa aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etish holatlari, shuningdek, xo'jalik boshqaruv organlarining mamlakatimizdagi umumiy aksiyadorlik kapitalidagi ulushi tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda xo'jalik boshqaruv organlarining tutgan o'zni yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan [5].



A. Tangriyev tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida xo'jalik organi hisoblangan "O'zyog'moysanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy faoliyati tahlil qilingan. Tadqiqotda ushbu jamiyatlar tarkibidagi xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash, shuningdek, kompaniyalar boshqaruvini samarali tashkil etish masalalari o'rganilgan [6].

G. Xamimova tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish, davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarining xo'jalik jamiyatlari sifatida faoliyat yuritishi, xo'jalik boshqaruv organlarida oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash, shuningdek, ularning investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari yoritilgan. Bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga davlat ishtiroki holati, davlat tomonidan xo'jalik jamiyatlariga taqdim etilayotgan individual imtiyozlar tahlil qilingan va qator ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan [7].

M. Tashmuxeimova tomonidan chop etilgan ilmiy maqolada davlat mulkini xususiyashtirishning o'ziga xos jihatlari, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish tartibi, shuningdek, bu jarayonning iqtisodiy zarurati chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ, "O'ztransgaz" AJ, "O'zbekneftgaz" AJ, "Tashshahartansxizmat" AJ, "O'zbekkimyosanoat" AJ kabi korxonalarning zarar bilan faoliyat yuritib kelayotgani holati asos qilib olingan va bu orqali davlat mulkini xususiyashtirish zarurati ilmiy jihatdan asoslab berilgan [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Davlat korxonasini xo'jalik jamiyatiga o'zgartirishning foydali jihatlari" mavzusini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Bu yondashuvlar orqali davlat mulkini isloh qilish mexanizmlarining samaradorligi, ularning amaliyotdagi tatbiqi va iqtisodiy natijalari chuqur o'rganildi.

Tadqiqotda "davlat korxonasi" tushunchasi huquqiy-huquqiy normalar asosida izohlangan bo'lib, u davlat mulkiga asoslangan, unga tezkor boshqaruv huquqi asosida ajratilgan mol-mulk negizida tashkil etiladigan yuridik shaxs maqomidagi tijorat tashkilotidir. Bunday korxonalar o'zlariga birlashtirilgan mulkdan qonun doirasida, o'z faoliyat maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga va mulkka egalik huquqi asosida belgilangan vazifalarga muvofiq tarzda foydalanadi va uni tasarruf etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga muvofiq, davlat muassasasi — boshqaruv, ijtimoiy-madaniy yoki boshqa notijorat xarakterdagi vazifalarni bajarish uchun davlat organi yoki tashkiloti tomonidan tashkil etilgan va to'liq yoki qisman davlat tomonidan moliyalashtiriladigan tashkilotdir.

Shuningdek, davlat unitar korxonasi – o'ziga birlashtirilgan mol-mulk ustidan bevosita egalik huquqiga ega bo'lmagan, lekin uni tasarruf etish vakolatiga ega bo'lgan, tijorat faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot sifatida belgilanadi. U davlat mulki asosida tashkil etiladi va foyda olish maqsadida ishlaydi, biroq mulkni tasarruf etish huquqi unga emas, balki tegishli davlat organiga tegishlidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat korxonasi xo'jalik jamiyatiga aylantirilgach, go'yoki u qattiq ma'muriy qolipdan chiqib, iqtisodiy erkinlikka erishgandek bo'ladi. Ilgari davlatning qat'iy rejalariga bo'ysunib faoliyat yuritgan korxona, endilikda o'z yo'lini o'zi belgilash, bozor talablariga moslashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu o'zgarish natijasida, yillar davomida parda ortida qolgan iqtisodiy salohiyat safarbar etiladi. Korxona faoliyatida samaradorlik va tejamkorlik oshadi, xarajatlar kamayadi, daromadlar esa ortib boradi. Bunday sharoitda korxona raqobat muhitida barqaror ishlashga, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishga intila boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-oktabrdagi "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi O'RQ-821-sonli¹ Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 279-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomda davlat korxonalari va davlat muassasalarini aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi xo'jalik jamiyatiga aylantirish tartibi belgilab berilgan.

Mazkur tartibga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan tasdiqlanadigan maxsus xususiyashtirish dasturlari qabul qilinadi. Ushbu dasturga asosan, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (Davlat aktiv agentligi) yoki uning hududiy boshqarmasi tomonidan korxonani o'zgartirish bo'yicha Komissiya tuziladi.

Komissiya korxonaning mol-mulki va moliyaviy majburiyatlarini to'liq ro'yxatdan o'tkazadi. Ro'yxat natijalari asosida dalolatnomalar rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjatlar asosida Davlat aktiv agentligi yoki uning hududiy bo'limi tomonidan davlat tashkilotini xo'jalik jamiyatiga o'zgartirish haqida buyruq qabul qilinadi.

1 O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-oktabrdagi "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi O'RQ-821-sonli Qonuni: <https://lex.uz/docs/-6401697>



Mazkur buyruqqa muvofiq:

Agar davlat unitar korxonasi xo'jalik jamiyatiga aylantirilayotgan bo'lsa, xo'jalik jamiyati ustav fondining miqdori mol-mulk baholanishidan qat'i nazar, soliq organlariga taqdim etilgan so'nggi buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida belgilanadi;

Agar davlat muassasasi xo'jalik jamiyatiga aylantirilayotgan bo'lsa, xo'jalik jamiyati ustav fondining miqdori davlat muassasasi balansidagi mulkning qoldiq qiymati asosida, baholovsiz tartibda aniqlanadi.(1-jadval)

1-jadval. Davlat korxonalari va muassasalarini xo'jalik jamiyatlariga aylantirish SXEMASI.

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar
1-bosqich	Tashabbuskorlar: davlat organi, davlat tashkiloti ta'sischisi, yuridik va jismoniy shaxslar. Ko'rib chiquvchi organ: Davaktiv agentligi, uning hududiy boshqarmalari, hududiy tanlov komissiyasi	1) Buyurtmanomalar va takliflar berish. 2) Takliflar va arizalarni ko'rib chiqish. 3) Xususiyashtirish dasturi loyihasini shakllantirish va Vazirlar Mahkamasiga yoki mulk masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga qaror qabul qilish uchun kiritish.
2-bosqich	Agentlik, uning hududiy boshqarmasi, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, baholovchi tashkilot	1) Agentlik yoki uning hududiy boshqarmasi davlat korxonasi yoki muassasasini o'zgartirishga tayyorlash bo'yicha Komissiya tuzadi. 2) Davlat korxonasi yoki muassasasining mol-mulki va moliyaviy majburiyatlarini xatlovdan o'tkazishni tashkil qilish va o'tkazish, xatlovdan o'tkazish dalolatnomalarini rasmiylashtirish. 3) Komissiya tomonidan Agentlik yoki uning hududiy boshqarmasiga tegishli qarorlar qabul qilish uchun taqdim etiladigan hujjatlar va takliflarni ko'rib chiqish. 4) Davlat korxonasi yoki muassasasini (zarurat bo'lganda) xususiyashtirishdan oldin tayyorlash.
3-bosqich	Agentlik, uning hududiy boshqarmasi, ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar	1) Mulk baholashdan o'tkazilmagan holda, soliq organlariga taqdim etilgan oxirgi buxgalteriya balansi ma'lumotlari va o'zgartirishga tayyorlash bo'yicha Komissiya tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida Agentlik yoki uning hududiy boshqarmasi tomonidan davlat korxonasi yoki muassasasini o'zgartirish to'g'risida buyruq chiqarish. 2) Tashkil etilgan xo'jalik jamiyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish.
4-bosqich	Agentlik, uning hududiy boshqarmasi, yangi vujudga kelgan xo'jalik jamiyati	Muayyan muddat ichida ijtimoiy majburiyatlarni (faoliyat sohasini saqlash, ish o'rinlari sonini saqlash va ko'paytirish va h.k.) bajarish.
5-bosqich	Agentlik, uning hududiy boshqarmasi	Mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderini berish.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiyashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-sonli² Farmonining avvalgi tahririda, xususiyashtirilishi belgilangan davlat unitar korxonalarini xo'jalik jamiyatlariga o'zgartirishda ularning ustav kapitali xatlov va baholash o'tkazilmagan holda, soliq organlariga topshirilgan so'nggi buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida sof aktivlar qiymatida belgilanadi, sof aktivlari manfiy bo'lgan taqdirda esa korxona ustav kapitali miqdorida aniqlanishi nazarda tutilgan edi.

Qayd etish joizki, davlat unitar korxonasini xo'jalik jamiyati etib o'zgartirishda uning ustav fondi miqdorini soliq organlariga taqdim etilgan oxirgi buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida belgilash ko'zda tutilgan bo'lsa-da, bu balansning aynan qaysi satridan foydalanilishi aniq ko'rsatilmagan. Bu holat amaliyotda tafsiflashdagi aniqlik yetishmasligi sababli, baholash va xatlov bosqichlarida noaniqliklar va huquqiy tushunmovchiliklarga olib kelmoqda.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, xususiyashtirish dasturlariga muvofiq davlat unitar korxonasini xo'jalik jamiyati etib o'zgartirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish maqsadida, ushbu korxonaning ustav fondi miqdorini soliq organlariga taqdim etilgan so'nggi buxgalteriya

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiyashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5068824>



balansidagi (amaldagi) ustav fondi miqdoriga teng qilib belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur taklif amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilishi lozim.

Ushbu yondashuv orqali davlat unitar korxonasini xo'jalik jamiyatiga aylantirishda, shuningdek, qayta tashkil etilayotgan jamiyatning ustav fondini belgilash jarayonida buxgalteriya balansida foydalanilishi lozim bo'lgan satrga aniq yondashuv joriy qilinadi. Bu esa normativ-huquqiy hujjatlarda aniqlik va tartibni ta'minlaydi hamda huquqiy tushunmovchiliklarning oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi 2023-yil 9-martdagi "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi O'RQ-821-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi "Davlat korxonalari va davlat muassasalarini xo'jalik jamiyatlariga o'zgartirish tartibi to'g'risida"gi 279-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktabrdagi "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 215-son qarori.
5. Qurbonov, J. "Directions of promoting small businesses in industry sector." *International Finance and Accounting*, 2018.2 (2018): 119.
6. Tangriyev, Abduxoliq. "Korporativ boshqaruv organlari va ularning faoliyatini baholash." *Innovatsion texnologiyalar*, 49.01 (2023): 112-116.
7. Xamimova, Xamimova. "Davlat ishtirokidagi korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruvni tashkil etishning mohiyati." *Conference on the Role and Importance of Science in the Modern World*. Vol. 1. No. 4. 2024.
8. Tashmuxeimedova, Mahina. "Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini amalga oshirish bosqichlarining xususiyatlari." *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24.5 (2023): 201-210.